



TOSHKENT – ULKAN BUNYODKORLIK, ZAMONAVIY BIZNES, ILM-FAN VA MADANIYAT MARKAZIGA AYLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-oktabr kuni Toshkent shahridagi yangi infratuzilma inshootlari va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari bilan tanishdi.



So'nggi yillarda poytaxtimiz ham aholi, ham hudud jihatidan o'smoqda. Muhandislik tarmoqlari quvvati shunga mutanosib tarzda oshirib borilmoqda.

Xususan, Shayxontohur tumanida, "Paxtakor" stadioni yaqinida yangi podstantsiya qurildi. Loyiha doirasida "Traktorsoz" podstantsiyasidan 19 kilometrdan ziyod kabel tortilib, 2 ta transformator o'rnatildi. U kelgusi oyda ishga tushiriladi. Buning natijasida poytaxtimiz markazida kafolatlangan 130 megavatt qo'shimcha elektr energiyasi hosil bo'ladi. Shahardagi boshqa podstantsiyalarga yuklama kamayib, avariya holatlar ehtimoli 60 foizga qisqaradi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Toshkent shahri elektr ta'minoti tizimidagi qurilish va modernizatsiya ishlariga oid taqdimot bilan tanishdi. Yana beshta podstantsiya qurilayotgani va to'rttasi yangilanayotgani, ularda jami 850 megavatt qo'shimcha quvvat yaratilishi qayd etildi.

Mamlakatimizdagi o'zgarishlar bosh shahrimizda, ayniqsa, yaqqol namoyon. Bugungi kunda Toshkent — ulkan bunyodkorlik, zamonaviy biznes, ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. "Tashkent city"dagi muhtasham binolar shahar ko'rkiga ko'rk qo'shdi. Bu yerdagi Xalqaro kongress markazida ko'plab forum va anjumanlar bo'lib o'tgan. Kelgusida yana qator nufuzli sammitlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, shinamlik darajasi yuqori mehmonxonalar, konsert va opera teatri barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbari ulardagi qurilish jarayoni bilan tanishdi. Ushbu majmua yurtimizda san'at rivojini yangi darajaga ko'tarish, madaniy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazishga xizmat qilishi qayd etildi.

Shuningdek, Prezident "Tashkent city" markazida qurilishi yakuniy bosqichda bo'lgan bir qator boshqa inshootlarni ham ko'zdan kechirdi.

daraja sovuq haroratgacha barqaror ishlaydi. Bunday paytlarda zaxiralangan mazutdan ishlatiladi. Quvurlar izolyatsiyasi mustahkamlangani uchun issiqlik yo'qotilishi kamaytirilgan. Natijada aholiga 65 darajadan kam bo'lmagan issiqlik yetkazib beriladi.

Xuddi shu tartibda 5-sonli issiqlik markazi ham modernizatsiya qilingan.

— Ochig'i, uzoq yillar davomida bu tizimga e'tibor bo'lmagan. Issiqlik korxonalari eski resursda, eskicha uslubda ishlab kelgan. Lekin olingan issiqlik sarflangan xarajatga nisbatan o'zini oqlamadi. Bundan odamlar ham rozi bo'lmadi, korxonalar ham manfaat topmadi. O'tgan yilgi sinovdan va imkoniyatlarimizdan kelib chiqib, issiqlik ta'minotini modernizatsiya qilyapmiz. Endi issiqlikni saqlash va tejash choralarini ko'rish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Toshkent shahrining Chilonzor tumanida ishga tushirilgan kogeneratsiya inshootini ko'zdan kechirdi.

Ma'lumki, o'tgan qishdagi anomal sovuqda issiqlik ta'minotida uzilishlar ro'y berdi. Chilonzor tumanining Oqtepa va Bog'zor mahallalari vaziyat murakkab bo'lgan hududlardan edi. Bu yerda 50 ta ko'p qavatli uy, 7 ta ijtimoiy muassasa va o'nlab tadbirkorlik shoxobchalari bor.

Ushbu holatning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun bu yerda bir vaqtning o'zida issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaradigan kogeneratsion quрилmalar ishga tushirildi. Ular soatiga 4,6 MVT elektr energiyasi hamda 29 gigakaloriyadan ortiq issiqlik ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Turkiyaning "Ilteko" kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilgan loyihaga Germaniyadan gaz-porshenlar hamda "Bosch" qozonlari keltirib o'rnatildi. Shuningdek, qozonxonadan iste'molchilargacha bo'lgan barcha issiqlik ta'minoti infratuzilmasi rekonstruksiya qilindi. Issiqlik magistrallari almashtirildi, har bir turar joy binosi va ijtimoiy obyektlarda alohida issiqlik taqsimlash punktlari o'rnatildi. Jami 13 ming metr uzunlikdagi issiqlik tarmoqlarini yangi, izolyatsiyali quvurlarga almashtirish hisobiga to'liq yopiq tizimga o'tkazildi va yo'qotishlardan himoya qilindi.

Loyihaning yana bir samarali jhati — issiqlik taqsimlash punktlari maxsus datchiklar bilan jihozlangan. Havo soviy yoki isib ketishiga qarab, uy ichidagi harorat mo'tadil saqlab turiladi.

Majmua ishga tushirilishi natijasida yiliga 5,3 million metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinadi. Atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar

67 foiz kamayadi, oqova suv tashlanmalari esa umuman bo'lmaydi.

Bog'zor va Oqtepa mahallalaridagi transformatorlar almashtirildi, elektr uzatish tarmoqlari yangidan tortildi. Bunga qo'shimcha, ko'p qavatli uylar tepasiga quyosh panellari o'rnatilmoqda.

Shu yerda Toshkent shahri va tegishli sohalarda mutasaddilari kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha axborot berdi. Davlatimiz rahbari energetika, kommunal, qurilish va servis kompaniyalari kabi barcha vositalarni safarbar qilib, ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazish, energiya va issiqlik ta'minotini barqaror qilish, bu borada xalq nazoratini yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari "Yashil makon" loyihasi doirasida kuzgi daraxt ekish mavsumini boshlab berdi. Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Oqtepa va Bog'zor mahallalariga tashrifi chog'ida jamoatchilik bilan birga ko'chat ekdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan daraxt ekish, yashil hududlarni ko'paytirish katta harakatga aylanmoqda. Bu mavsumda 85 million tup ko'chat o'tqazilishi mo'ljallangan. O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan har bir mahallaga 200 tadan ko'chat bepul yetkazib beriladi. Shuningdek, 15-oktabrdan barcha tuman va mahallalarda ko'chat yarmarkasi tashkil qilinadi.

Mahalla aholisi bilan suhbatda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayoni haqida so'z bordi.

— Bugun kelishimizdan maqsad — o'tgan yilgi saboqdan natija nima bo'lganini ko'rish, — dedi davlatimiz rahbari. — Buning uchun kerakli qarorlar qabul qildik, katta mablag'lar ajratdik. Xorijdan texnologiyalar, mutaxassislar olib keldik. Soha xodimlari qo'shimcha o'qitildi, ularning oyliklari oshirildi. Hozir rahbarlarga har bir mahalla, har bir ko'p qavatli uy, maktab, shifoxonalarga kirib, issiqlikni kafolatlash bo'yicha yana topshiriqlar berdim. Eng muhimi, bu borada xalq nazoratini yo'lga qo'yamiz. Shu bilan birga, energiya tejamkorlik madaniyatini oshirish kerak. Sizga o'sha-gan ko'pni ko'rgan insonlar, ziyolilar bunda namuna, davlatga ko'makchi bo'lishi zarur.

Jamoatchilik vakillari kuz-qishga tayyorgarlikni, yurtimizdagi o'zgarishlarni e'tirof etib, o'z uylari va barcha muassasalarda issiqlikni asrashda jonkuyar bo'lishlarini ta'kidlashdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.



BUGUNNING GAPI

IQTISODIYOT G'ILDIRAGI yoxud energetika tizimidagi o'zgarishlar ahamiyati qanday?

Energetika — mamlakat taraqqiyotining asoslaridan biri.

Chunki qulay hayot kechirish, ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minot, kommunal xo'jaligi, sanoat, qishloq xo'jaligi, umuman, iqtisodiyotning barqarorligi aynan shu soha faoliyatiga bog'liq. Bunda o'tgan qishda kuzatilgan anomal sovuq oqibatida kelib chiqqan kamchiliklar misolida barchamiz guvoh bo'ldik. Mamlakatimiz energetika tizimida ayni paytda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik chog'ida ushbu jihatlar alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu masalalar eng yuqori darajada hal etilmoqda.

Xususan, joriy yil 16-iyun kuni XXVI Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi doirasida Rossiya gazini O'zbekistonga yetkazib berish bo'yicha shartnoma hamda respublikamiz gaz-transport tizimini ushbu gazni qabul qilishga tayyorlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" imzolangan edi.

— Avval tabiiy gaz O'rta Osiyo — Markaz magistrall gaz quvuri orqali Qozog'istondan tranzit bilan Rossiyaga yuborilgan bo'lsa, aynan shu "Yo'l xaritasi" tufayli endi gaz revers rejimida, ya'ni teskari oqimda O'zbekistonga yetkazilishi, shuningdek, respublikamiz hududida yangi gaz o'lchash stansiyasi qurilishini hisobga olgan holda mavjud tadbirlarni

joriy yil sentabr oyiga qadar yakunlash belgilab olingandi, — deydi Energetika vazirligi axborot xizmati rahbari Hasan Toshxo'jayev. — Prezidentimizning yaqinda Rossiyaga rasmiy tashrifi davomida ana shu hujjatlar asosida Rossiyadan Qozog'iston hududi orqali O'zbekistonga gaz yetkazilishiga start berildi.

Shartnoma to'liq tijoriy shartlarda ishlab chiqilgan, u yurtimiz iste'molchilarining tabiiy gazga oshib borayotgan ehtiyojini qisman qondirish hamda kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazishga qaratilgan chora-tadbirlardan biridir.

Davomi 3-betda



"QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM!"

Xabar berganimizdek, poytaxtimizda vazirlik, hokimlik, tashkilot va idoralar rahbarlarining davlat tilida ish yuritish bo'yicha maslahatchilari ishtirokida "Tilimiz taraqqiyoti yo'lida birlashsak, ulkan qudratmiz" shiori ostida birinchi respublika seminari bo'lib o'tdi.

Kecha seminar qatnashchilari Yozuvchilar uyushmasining katta marosimlar zalida Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi tomoni-

dan an'anaviy tarzda tashkillashtirib kelinayotgan "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" respublika tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimida hozir bo'ldilar.

Davomi 5-betda



MUNOSABAT

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

MDH DAVLATLARINING UMUMIY VA ASOSIY MAQSADLARIDAN BIRI

Har bir mamlakat o'z aholisining kundalik iste'mol mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondira olishi kerak. Bu hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan sanaladi. Buni davlatlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda — kimdir mahalliy ishlab chiqarish, kimdir import hisobiga amalga oshirishga intilmoqda. O'zbekistonning so'nggi yillarda erishgan katta yutuqlaridan biri qishloq xo'jaligini tubdan rivojlantirish hisobiga 36 milliondan ziyod aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash barobarida, eksport ko'laminini ham oshirib borayotganida, deyish mumkin.

Hozirgi vaqtda yurtimizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari dunyoning 60 dan ziyod mamlakatiga eksport qilinayotgani buning isboti. Birgina meva-sabzavot va dukkakli mahsulotlarning eksport hajmi oxirgi yetti yilda qariyb 2 barobar oshgan. O'tgan davrda sohaga oid qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida ichkil choratadbirlar, yangi va zamonaviy yondashuvlar amalga oshirilyapti. Buning amaliy natijalarini esa O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi reytingidagi o'mi ko'tarilib borayotganida yaqqol ko'rish mumkin.

Albatta, o'sayotgan ko'rsatkichlar sohadagi katta islohotlar, ajratilayotgan mablag'lar, tarmoq vakillariga berilayotgan qator imtiyoz va imkoniyatlar mahsull. Chunki oziq-ovqat xavfsizligi dunyoning aksariyat davlatlari qatori bizda ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, soha boshqaruvida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davomi 2-betda



Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bugun zamon shiddatli. Ilm-fan, texnika jadal rivojlanmoqda. Shu bois, mamlakatimizda bozor talablari asosida energetika tizimini taraqqiy ettirish, sohada raqobat muhitini yaratish, ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Energetika sohasida bozor munosabatlari o‘tishda muvaffaqiyatli odimlardan biri davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida energiya, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishdir. Bugun ushbu model jamiki qurilayotgan va rejalashtirilgan elektr stansiyalari uchun asosga aylandi. Shunday qilib, yangi issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish ko‘p jihatdan mamlakat energetika sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga misol bo‘la oladi. DXSH asosidagi loyihalar tender, ya‘ni raqobatdosh bozor asosida o‘tkaziladi.

Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki eng yaxshi xalqaro tajribani o‘zlashtirish va tenderlar o‘tkazish uchun texnik yordam ko‘rsatmoqda. Tender g‘olibi yangi elektr stansiyasini loyihalash, qurish va ishlatish uchun mas‘ul bo‘ladi. Korxonalar bilan ishlab chiqariladigan elektr energiyasini xarid qilish yuzasidan 20-25 yilga mo‘ljallangan uzoq muddatli bitim tuziladi. Elektr energiyasi uchun foydali narx taklifi tenderda g‘olib bo‘lish uchun asosiy mezon qilib olingan. Ammo o‘z taklifini berishdan oldin tender qatnashchilari malakali saralash bosqichidan o‘tishi lozim. Bundan ko‘zlangan maqsad — ularning tajribasi, mablag‘i mavjudligi, bunday loyihalarni amalga oshirish va ta‘minlashga qodirligini bilish. O‘zbekiston energetika sohasida joriy qilinayotgan bunday bozor tamoyillari sohada sog‘lom raqobat yaratishga imkon beradi.

Bugungi kunda elektr energiyasi xaridi bo‘yicha jami 17 ta bitim imzolangan. Elektrni mustaqil ishlab chiqaruvchilar qatorida “TOTAL EREN CA” (Fransiya), “ABU DHABI FUTURE ENERGIY COMPANYY” (BAA), “ACWA POWER” (Saudiya Arabistoni) kabi kompaniyalar mavjud. Prezidentimizning 2019-yil 27-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Energetika vazirligi huzurida Loyiha markazi tashkil qilingan. U xalqaro moliya tashkilotlari bilan ham ish yuritadi. Bularning bari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida energiya samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.



yoxud energetika tizimidagi o‘zgarishlar ahamiyati qanday?

Misol uchun, shu kunlarda Sirdaryo viloyatining Shirin shahri va Boyovut tumanlari hududida issiqlik elektr stansiyasi barpo etilmoqda. U yerda Yaponiyaning “Mitsubishi” kompaniyasining dunyodagi eng zamonaviy va energotejamkor gaz turbinolari o‘rnatilmoqda.

Umumiy qiymati 1,2 milliard dollarga teng ushbu loyiha Saudiya Arabistonining “ACWA POWER” kompaniyasi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hisobiga amalga oshirilyapti. Mazkur elektr stansiyasi 2024-yilning birinchi choragida to‘liq quvvatda ish boshlaydi. Natijada stansiya yiliga 12 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Eng zamonaviy, energiya tejamkor texnologiyalar o‘rnatilishi hisobiga yiliga 1,1 milliard kub metr tabiiy gaz tejraladi.

Stansiya qurilishi davomida 2000 nafargacha odam ish bilan ta‘minlangan bo‘lsa, u ishga tushganidan keyin 120 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Ushbu investitsiya loyihasi Prezidentimizning 2020-yil 10-avgustdagi “Sirdaryo viloyatida quvvati 1 500 MVt bo‘lgan yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda jahonda energiya iste‘molining qariyb 23 foizi uy-joy sohasiga to‘g‘ri kelsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 40 foizni tashkil qilmoqda. Xususan, Yevropada 1 kvadrat metr uchun energiya sarfi yiliga 120-150 kilovatt-soatni tashkil qilsa, yurtimizda bu ko‘rsatkich 390 kilovatt-soatdan oshmoqda. Energiya samaradorligini oshirishga doir jarayonlarda 2020-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish evaziga 1 milliard 352,4



million kub metr tabiiy gaz, 917,5 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejashga erishilgani esa diqqatga sazovor jihat.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha joriy qilinayotgan loyihalar mamlakat energetika sohasi oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Uzluksiz ta‘minotdagi muammolar

Bugun elektr energiyasi iste‘moli uzluksizligini ta‘minlashda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda.

Jumladan, ta‘minotdagi uzilishlar havo harorati so‘vib ketishi natijasida iste‘molning keskin ortib ketishi tufayli yuzaga keladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli uzilishlar tizimdagi katta avariylarning oldini olishga imkon beradi. Buning sababi shuki, energiya tizimida uning barqaror ishlashi uchun har qanday vaqtda iste‘mol

sabab bo‘ldi. Energetika vazirligi bu holatga ham izoh berdi. Unda keltirilishicha, mazkur o‘svuchan koefitsiyent iste‘molchilarning 98 foiziga mutlaqo ta‘sir qilmaydi. Chunki mamlakatimizdagi 7 million 589 mingdan ziyod abonentning atigi 146 mingdan ortig‘i 1000 kilovatt-soatdan ko‘p elektr energiyasi ishlatadi, xolos.



va ishlab chiqarish o‘rtasidagi energiya muvozanati ta‘minlanishi muhim. Ushbu jarayon iste‘molchilarga elektr energiyasini ishonchli va uzluksiz yetkazib berish hamda energiya tizimi muammosiz ishlashini ta‘minlash nuqtayi nazaridan juda muhimdir.

Elektr energiyasiga ehtiyojning keskin ortishi (yoz jaziramas yoki qahraton qishdagi sovuq ob-havo tufayli) kuzatilgan paytda hatto rivojlangan mamlakatlarda ham iste‘mol va ishlab chiqarish o‘rtasidagi energiya balansini ta‘minlash juda qiyin kechadi. Bunda katta avariylar hamda butun mamlakatda iste‘molchilar ta‘minotdan uzilishining oldini olish uchun cheklovlar joriy etiladi. Energiya balansini ta‘minlash imkoni bo‘lmagan hollarda hududiy elektr tarmoqlari korxonalari dispatcherlik boshqarmasi iste‘molchilarning bir qismiga reja jadvaliga muvofiq cheklovlar o‘rnatishga majbur bo‘ladi. Ushbu grafiklar, qoida tariqasida, past kuchlanishli (0,4 kv, 6-10 kv) taqsimlash elektr tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Bu harakatlar ehtimoliy yirik avariylarni bartaraf etadi.

— Energetika tizimi elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi issiqlik elektr stansiyalari, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini yuqori kuchlanishli magistral tarmoqlari orqali uzatish, elektrni taqsimlash tarmoqlari va iste‘molchilarni o‘z ichiga olgan murakkab tuzilma hisoblanadi, — deydi Bosh prokuratura Iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi prokurori, adliya kichik maslahatchisi Fayoz Normurodov. — Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash hamda iste‘mol qilish bir paytning o‘zida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yagona texnologik jarayonni qamrab oladi. Bunda har lahzada ular o‘rtasida tenglik, muvozanat o‘rnatish nihoyatda muhim.

Tizimga noqonuniy ulanishlar ham ortiqcha kuchlanishlarni yuzaga keltiradi. Vaholanki, bunday holatlarga nisbatan qonunchilikda javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Ya‘ni kimdir elektr energiyasiga noqonuniy ulangan bo‘lsa, Jinoyat kodeksi hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddalariga asosan javobgarlikka tortiladi.

Ko‘p ishlatgan ko‘p to‘laydi

Joriy yil 1-noyabrdan boshlab bir oyda elektr energiyasini o‘rtacha oylik iste‘moli uchun to‘lov miqdoriga o‘svuchan koefitsiyent qo‘llanilishiga doir yangi tartiblar ijtimoiy tarmoqlarda turli muhohazalarga

Ularining atigi 10 ming nafari oyiga 5 ming kilovatt-soatdan oshiq, bor-yo‘g‘i, 4 mingdan ortiq iste‘molchi esa oyiga 10 ming kilovatt-soatdan ziyod elektr energiyasi iste‘mol qiladi.

Avvalo, tarif narxi oshayotgani yo‘q. O‘sha 295 so‘m joy-joyida turibdi. Ammo odamlarda tejamkorlik kayfiyatini kuchaytirish hamda “yashirin iqtisodiyot” unsurlariga barham berish uchun qo‘shimcha o‘svuchan koefitsiyent qo‘llanilishi nazarda tutilmoqda.

Bunda iste‘molchi bir oyda 1000 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi sarflasa, 295 so‘mdan 295 ming so‘m to‘laydi. 1001 kilovatt-soatdan 5000 kilovatt-soatgacha iste‘mol qilinganda esa 1000 kilovatt-soat uchun 295 ming, aytaylik, 4 ming 850 kilovatt-soat yoqqan bo‘lsa, 1001 dan 4 ming 850 gacha 590 so‘mdan to‘laydi.

Agar bir oyda 9 ming 420 kilovatt-soat ishlatilsa-chi? Bunda ham xuddi 1000 kilovatt-soat uchun 295 ming so‘m, 1001 kilovatt-soatdan 5000 kilovatt-soatgacha 590 so‘mdan 2 million 360 ming so‘m, 5001 kilovatt-soatdan 9 ming 420 kilovatt-soatgacha 3 million 911 ming 700 so‘m, jami 6 million 566 ming 700 so‘m to‘lov qilinadi. O‘svuchan koefitsiyentgacha esa bir oyda 9 ming 420 kilovatt-soat sarflagan iste‘molchi bunga 2 million 778 ming 900 so‘m to‘lardi. Ya‘ni u bir oyda 6 million 358 ming 500 so‘m shartli subsidiya olgani holda aholining qolgan 98 foiz qismidan ko‘ra, bir necha o‘n karra ko‘proq elektr energiyasi iste‘mol qilardi. 1-noyabrdan keyin ana shu holatga chek qo‘yiladi.

Xuddi shu o‘svuchan tarif 10 ming kilovatt-soatdan ziyod elektr toki ishlatadiganlarga ham qo‘llanilmoqda. Endi kimda-kim bundan ko‘p ishlatasa, u uchun belgilangan tarifga nisbatan 4 barobar o‘svuchi koefitsiyent qo‘llaniladi.

Ya‘ni iste‘molchi tomonidan bir oyda 12 ming 400 kilovatt-soat sarflansa (buni tasavvur etish qiyin, lekin tahlillar shuncha miqdorda elektr energiyasi ishlatadiganlar borligini ko‘rsatgan), 1000 kilovatt-soatgacha 295 so‘mdan, 1001 dan 5000 kilovatt-soatgacha 590 so‘mdan, 5001 dan 10 ming kilovatt-soatgacha 885 so‘mdan, 10 mingdan 12 ming 400 kilovatt-soatgacha 1 ming 180 so‘mdan haq to‘laydi. Bu unga jami 9 million 912 ming so‘mga tushadi.

1-noyabrgacha esa xuddi shuncha miqdorda elektr energiyasi iste‘mol qilgan abonent 3 million 658 ming so‘m to‘lardi, xolos. Shu bilan birga, u davlatdan 8 million 370 ming so‘m shartli subsidiya ham olardi.

“ISTE‘MOLCHI TOMONIDAN BIR OYDA 12 MING 400 KILOVATT-SOAT SARFLANSA (BUNI TASAVVUR ETISH QIYIN, LEKIN TAHLILLAR SHUNCHA MIQDORDA ELEKTR ENERGIYASI ISHLATADIGANLAR BORLIGINI KO‘RSATGAN), 1000 KILOVATT-SOATGACHA 295 SO‘MDAN, 1001 DAN 5000 KILOVATT-SOATGACHA 590 SO‘MDAN, 5001 DAN 10 MING KILOVATT-SOATGACHA 885 SO‘MDAN, 10 MINGDAN 12 MING 400 KILOVATT-SOATGACHA 1 MING 180 SO‘MDAN HAQ TO‘LAYDI. BU UNGA JAMI 9 MILLION 912 MING SO‘MGA TUSHADI.



tarmoqlari korxonalari va yirik iste‘molchilarga belgilangan tariflarda sotadi. Keyingi bosqichda elektr energiyasini onlayn savdo platformasida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxda sotadi. Eksport va import operatsiyalarini shartnomalar asosida amalga oshiradi.

Bundan tashqari, energetika bozori regulyatori sifatida Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tashkil etilmoqdaki, bu ham elektr energiyasining raqobatga asoslangan ulgurji va chakana bozorlarini bosqichma-bosqich tashkil qilishda, raqobatni qo‘llab-quvvatlash hamda bozor jozibadorligini oshirishda qo‘l keladi.

Yechim — o‘zgarishlarda

Mamlakatimizda hosil qilinayotgan elektr energiyasining qariyb 97 foizi “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi elektr stansiyalariga to‘g‘ri keladi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, o‘tgan yili elektr energetikasi tizimidagi mavjud korxonalar tomonidan iste‘molchilarga jami 57 milliard kilovatt-soatdan ortiq elektr energiyasi yetkazib berilgan. Bugungi kunda bir yilda ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmi 60 milliard kilovatt-soatdan ortiq bo‘lib, ishlab chiqarish o‘tgan asrning 90 yillari o‘rtalaridagiga nisbatan



yaratish, sohaga xorijiy va xususiy investitsiyalar kelishini ko‘paytirish, narx shakllanishining erkin va shaffof mexanizmlarini joriy qilishga asoslangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘plab vazifalar belgilab berildi. Xususan, aholi uchun elektr energiyasi tariflarini belgilashda ijtimoiy himoya mexanizmlari joriy etiladi. Respublikaning barcha hududlarida 2035-yilga qadar aholiga elektr energiyasi yagona narx siyosati asosida sotilishi ta‘minlanadi.

Aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektr energiyasi ta‘minotchilarini erkin tanlash huquqi beriladi. Elektr energiyasining ulgurji bozorida narx talab va taklif asosida erkin shakllanishi ta‘minlanadi. Elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qilish va sotish uchun “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati tashkil etiladi. Jamiyat dastlabki bosqichda elektr energiyasining raqobatga asoslangan ulgurji bozori mexanizmgacha o‘tish davrida elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilardan uni xarid qiladi hamda hududiy elektr

qariyb 10 milliard kilovatt-soat ko‘paygan. Aholi turmush darajasi o‘shishi, turli zamonaviy maishiy elektr jihozlarning turmushda foydalanish ko‘lami kengayayotgani bois, elektrga talab tobora ortib bormoqda.

Qayd etganimizdek, sovuq kunlar kirishi bilan aholining isitish vositalaridan ko‘proq foydalana boshlashi elektr energiyasi yetkazib berishdagi me‘yorning birmuncha izdan chiqishiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari jadal olib borilganiga qaramay, bu yilgi ilk sovuq kunlardayiq qator kamchiliklar yuzaga kelganini barchamiz ko‘rdik. Yetkazib berilayotgan tabiiy gaz bosimi pasayishi va elektr energiyasidagi uzilishlar poytaxtimiz hamda viloyatlar aholisi uchun birmuncha noqulay sharoit yaratdi. Ushbu holat yurtdoshlarimiz e‘tiroziga ham sabab bo‘ldi.

Bugun ko‘rilayotgan choralar, amalga oshirilayotgan yangi loyihalar ana shunday kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

Jarayon

YANGI O‘ZBEKISTON

BUZILGAN UYNI QAYTA QURISH

Surxondaryoda sholichilik shuhrati qayta tiklanadimi?

Oson emas

Har bir xalqning o‘z milliy taomi bor. O‘zbekniki esa palov. Uyimizga mehmon kelsa, albatta, sersabzi, sergo’sht osh damlaymiz. Avvalo, mehmonning hurmati, qolaversa, to‘yimiligi uchun. Oshpazlar shirin va yeyishli bo‘lishi uchun mayiz, behi, har xil ziravorlar, sarimsoqpiyoz ham qo‘shib damlaydi oshini. Aslida, oshning totli va xushxo‘rligi ko‘p jihatdan sara guruchga bog‘liq. Bozorda sifatli guruchning narxi esa ancha baland. Shu kecha-kunduzda Surxondaryo bozorlarida yaxshi guruchning bahosi 30 ming so‘m atrofida. Eng arzoni ham 15-18 ming so‘m. Bozorning talabi shu: nima kam bo‘lsa, o‘sha mahsulotning bahosi qimmatlashadi.

So‘nggi yillarda voha bozorlarida guruchning narxi ko‘tarilishiga asosiy sabab, asosan, Xorazmdan keltirilayotganida. Holbuki, Surxondaryo zaminida yetishtiriladigan guruch azaldan mashhur bo‘lgan. Nimasi bilan deysizmi? Pazandalarning xulosasiga ko‘ra, qozonga solsangiz suv ko‘taradi, ezilib ketmaydi, tez pishadi, Xorazmning guruchiday yaltiroq bo‘lmasa ham shirali, ta‘mi og‘zignizda qoladi. Bir tovovdagi osh bemaol ikki-uch kishini to‘ydirdi.

Ayniqsa, viloyatning Muzrabot tumani yerlarida o‘stirilgan “Avangard”, “Oqpar”, “Lazur”, “Uzros 7/13” navli sholi guruchlari shiradorligi, to‘yimiligi va qozonga tushadigan hajmi ko‘payishi bilan oshxo‘rlar mehrihga tushgandi.

2,8 millionlik viloyat aholisini sifatli guruch bilan ta‘minlash va boshqa joydan bu mahsulotni olib kelmalik, ortiqchasini qo‘shni viloyatlar bozorlarida sotish maqsadida to 2000-yilgacha Muzrabotning Amudaryoga tutashib ketadigan 15 ming gektardan ortiq yerida faqat sholi o‘stirilgan. Tajribali va omilkor dehqonlar sholi maydonlarining har gektaridan 80 sentnergacha xirmon ko‘targanini keksalar hamon eslashadi.

Sholichilik mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan Jovmir Muhammadiyev, Qurbonoy Qoraxonova, Do‘stmurod Quvonov, O‘tan Oltiyev, Shopo‘lat Xudoyberdiyev, Qurbon Amirqulov, Parda Xudoyorov singari o‘nlab usta dehqonlarni elga tanitdi, ko‘ksiga ordenu medallar taqdi, deputat qildi. Shunday mirishkor dehqonlarning zahmatli mehnati evaziga o‘shanda har mavsum Muzrabot tumanida 50 ming tonnagacha sholi yetishtiriladi.

Tuman shirkat xo‘jaliklari dalalariga paxta yakkahokimligi davrida va hozirgacha ham aynan sholi yetishtirilishi sababini umrining 50 yilini soha rivojiga bag‘ishlagan nuroniy dehqon Xo‘jamqul Oltiyev bunday izohlaydi: “Bu yerlar Amudaryoga yaqin, zaxi ko‘p. Dehqonlar ayrim yillar g‘o‘za ham, g‘alla ham o‘stirgan, lekin yuqori hosil

olinmagan. Izma-iz ishlov berib, bot-bot o‘g‘it solinganda ham g‘o‘za nari borsa 4-5 ta ko‘sak tukkan, bo‘yi o‘smay, rangi sarg‘a-yib qolavergan, bug‘doy ham bo‘liq bo‘lmay, boshloqlari donga to‘lmagan. Chunki g‘o‘za ham, bug‘doy ham issiqsevar o‘simlik, unumdor yerda yaxshi rivojlanadi. Bu joylar esa aynan sholiga mos, sholi suvsevar, namlikda serhosil bo‘ladi. Bu tajriba olimlar tomonidan isbotlangani uchun Muzrabot tumanining ayrim shirkat xo‘jaliklari dalalarida faqat sholi o‘stirilgan va yuqori hosildorlikka erishilgan.

2004-2006-yillarda qishloq xo‘jaligidagi islohotlar natijasida Muzrabotdagi sholichilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar tugatilib, yerlari, mol-mulkilari negizida fermer xo‘jaliklari tashkil qilindi.

Ba‘zilarning nazarida sholi yetishtirish oson, tashvishlari paxtaniki yoki boshqa ziroatnikidek mashqaqatli emas. Aslida-chi? Sholi yetishtirish sertashtish, sifatli urug‘lik topish muammo, o‘g‘itning bir qopi falon pul. O‘toqchiyu suvchiga, o‘rim davriga kombaychi-yu texnika haydovchilarga ish haqiyu oziq-ovqatiga million-million so‘m xarajat qilish kerak. Yer tekislash, chek ochildi, sara urug‘lik va o‘g‘it xarid qilishga o‘sha paytda endi tetapoya bo‘layotgan, yana deng, tuzukroq texnikasi ham yo‘q fermer xo‘jaliklarining qurbi yetmadi. Boz ustiga, sholi yetishtiriladigan maydonlarning katta qismi Amudaryo bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara hududning ichkarisiga joylashgani tufayli o‘sha joylarga kirib-chiqib sholi yetishtirish uchun chegara qo‘shinlari qo‘mondonligi hamma fermer yoki dehqon-gacha ham ruxsatnoma bermasdi.

Shirkat xo‘jaliklari bor paytlar mahalliy hokimiyat tavsiyasi bilan qo‘mondonlik ruxsatnomasi har bir dehqonga tayyorlangan. Mabodo ayrim fermer xo‘jaligi rahbariga chegara ichkarisiga kirib-chiqish ruxsatnomasi rasmiylashtirilgan taqdirda ham yollanma ishchilar kiritilmasdi. Natijada chegara hududi ichkarisidagi shirkat xo‘jaliklari a‘zolari sholi yetishtirgan ming-minglab



gektar yerga chorak asr mobaynida na texnika kiritildi, na sholikor ishladi. Ekin ekilmasligi oqibatida yer ishdan chiqdi, hosildor maydonlarni qamish, g‘umay va boshqa begona o‘tlar bosib ketdi. Ayrim dalalarda qamishning bo‘yi ikki metrden oshganini hozir o‘sha joylarda sholi yetishtirayotgan dehqonlardan eshitdik.

To‘g‘ri, o‘tgan chorak asr mobaynida si-fatti urug‘lik topish, o‘g‘it xarid qilish, yollanma ishchilarga ish haqi ajratish va ovqatlantirish kabi xarajatlarga imkoni bor oilalar hamda iqtisodiy jihatdan barqaror fermer xo‘jaliklari chegara qo‘shinlari qo‘mondonligi bilan yetishtiriladigan hosilni teng bo‘lish shartida shartnoma tuzib, qisman chegara hududi ichkarisi va, asosan, chegara tashqarisidagi 800-900 gektar yerga sholi o‘stirib kelishdi. Ammo juda yuqori hosil olishgani yo‘q. Ular tomonidan yetishtirilgan sholi guruchi 2,8 million aholi yashaydigan Surxondaryo viloyati uchun uruq ham bo‘lmadi. Garchand sholi yetishtirishga mos zamin bo‘lsa ham katta viloyatning eli Xorazmdan guruch kelishini kutib yashadi.

Voha bozorlarida esa, yuqorida aytganimizdek, guruchning narxi ko‘tarilib ketdi. Nihoyat, bu yil Surxondaryoda sholichilikni rivojlantirish va avvalgi shuhratini tiklash yo‘lida keng ko‘lamli islohotlarga qo‘l unidi. Yil boshida “SCT Cluster Sholi” MCHJ ishblarmonlari Muzrabot tumaniga kelib, sharoit va holatni obdon o‘rgan-di, so‘ngra sholi yetishtirish uchun zamin hozirlashga kirishdi. Viloyat hokimi qarori asosida tumandagi sholi yetishtirish mumkin bo‘lgan yerlar MCHJ tasarrufiga berildi.

Klaster tadbirkorlari tumandagi qamish, g‘umay bosib yotgan dalalarga qayta ishlov berish choralarini izladi.

Tayyorlangan “Yo‘l xaritasi”ga asosan, 2025-yil oxirigacha 20,1 ming gektar yer qayta oborotga kiritiladi va asosan, sholi yetishtiriladi. Klaster mutaxassislari taqdim etgan ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu loyihani amalga oshirish uchun 819 milliard so‘mlik ishlar bajariladi.

Joriy yil aprel oyidan klasterga qarashli turli rusumdagi yuzlab texnika safarbar qilinib, go‘yo to‘qayzorga aylangan yerlarni begona o‘tlardan tozalash, yer tekislash, yillar davomida loyqa va qamishga to‘lib qolgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ta‘mirlash, tiklash, rekonstruksiya qilish, yangidan kanal hamda shohariqlar qazish, Amudaryodan suv tortib chiqaradigan Jayxun nasos stansiyasini tiklash, zoyur suvlari dalaga oqizishga xizmat qiladigan MK-9 nasos stansiyasini ta‘mirlash hamda dalalarni sholi ekishga tayyorlash yumushlari tizimli ravishda tashkil qilindi. 8 ming gektar yer ziroat o‘stiradigan holatga keltirilguncha iyun oyi ham kirib keldi. Kech bo‘lsa ham 4,5 ming gektar maydonda cheklar ochildi, sholining “Lazur”, “Avangard”, “Guliston”, “Nukus” navlari ekildi. Omilkor dehqonlar fikricha, aslida sholi xuddi chigit singari aprel oyi o‘rtalarida ekilishi kerak.

Odatda surxondaryolik mirishkorlar sholi urug‘ini saykaldaga ekib, cheklarga ajratib, so‘ng sug‘organ. Klaster hosilotlarining tavsiyasiga binoan, dehqonlar maydonlarni suvga to‘ldirgach, keyin suv to‘la maydonlar ichida yurib, qo‘l kuchi yordamida urug‘

sochdi. Avvaliga tajribali dehqonlarni topish, ularni ishga jalb qilish oson kechmadi. Chunki o‘troq aholi ancha yillar o‘z bilganicha 10-15 gektar yerga sholi ekib, daromad qilib yurgani uchunmi, “klaster bizga haq bermaydi”, degan ma‘noda tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlashni xohlashmadi. Oqibatda Xorazm viloyatidan 60 nafar tajribali sholikor taklif qilindi.

Vaqt tig‘iz, dalada ish qaynagani tufayli klaster vakillari xonadonma-xonadon kirib, ish haqlarini oyma-oy berishga ishonitirib, mahalliy dehqonlarning bir qismini dalaga qaytardi. Klaster sholizorlarda mehnat qilayotgan dehqonlarga ikki mahal tekni issiq ovqat tashkil qilayotgani va maoshni o‘zi vaqtida berayotganidan xabar topgan boshqa fuqarolar ham a‘zolikka qabul qilishni so‘rab kela boshlashdi. Natijada doimiy a‘zolar soni 600 nafarga yetdi.

Xorazmdan kelgan sholikorlar tavsiyasi asosida sholi parvarishi agrotexnika talablari bo‘yicha tashkil qilindi. Mavsumiy ishlar-ga jalb qilinganlar soni ham 300 nafardan oshdi. Cheklar uch marta obihayotga to‘lgazildi, uch marta oziqlantirildi, begona o‘tlar haddan ziyod ko‘paydi, yo‘qotish uchun qayta-qayta gerbitsid qo‘llanildi. Samara chakki emas: urug‘ kech ekilganiga qaramay, sholizorlarda hosil cho‘g‘i mo‘l.

Shu kecha-kunduzda sholizorlarda ish unumi yuqori 10 ta “Keys” kombayni va 100 ga yaqin texnika yordamida “qirmizi don” yig‘ishtirib olinaypti.

— Chegara hududi tashqarisidagi yerlarda qishloq fuqarolari tomonidan har mavsum sholi ko‘kartiilgani uchun o‘t kam, hosil bo‘liq, chegara hududi ichkarisida qamish, g‘umaydan tozalanib, urug‘ sochilgan dalalarda sholi cho‘g‘i pastroq, — deydi klaster direktori o‘rinbosari Xalil Egamberdiyev. — Ayrim zvenolar sholizorlardan o‘rtacha 60-70 sentnergacha hosil olinayotir. Shartnoma sharti bunday: har gektar maydondan 40 sentnerdan sholi topshirilsa bas, ortiqchasi dehqonlarning o‘ziga beriladi.

O‘rib-yig‘ib olinayotgan sholi tarkibida namlik yuqori, quritilmasa, sifatiga ta’sir qiladi, sholi mog‘orlab qoladi. Dehqonlar sholini omborlarga kiritishdan oldin sobiq shirkat xo‘jaliklarining asfaltlangan va betonlashtirilgan yirik-yirik xirmonlarida quritmoqda. “To‘yar oshni ko‘z taniydi”, deganlaridek, endigina 1100 gektar maydondagi hosil yig‘ishtirib olingan bo‘lsa-da, necha vaqtdan beri bo‘sh yotgan xirmonlar sholiga to‘lib ketdi.

O‘rim o‘tkazilgan dalalardan sholi poxollari maxsus texnika yordamida peshma-pesh toylanib, bir qismi shartnomaga asosan, chegara qo‘shinlari chorva kompleksiga jo‘natilmoqda,

yarmi ishchilarga tekin tarqatilyotir, ortgani maxsus texnika bilan maydalanib, yerga o‘g‘it sifatida sochiyapti.

Kelgusi yil sholi poxollari tashkilotga qo‘shimcha daromad keltiradi. Termiz shahridagi “Surxonsanoat” korxonasining Muzrabot filialida qamishdan DSP ishlab chiqariyapti. Kelgusida shu korxona ishblarmonlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, sholi poxollaridan ham qurilishbop materiallar tayyorlanadi.

Ayni paytda sholizorlarda o‘rimni tezlashtirish bilan bir qatorda yer o‘zlashtirish, qamish, g‘umayni tag-tugi bilan yo‘qotish, kuzgi bug‘doy ekish ishlari jadallashtirilyotir. Bundan tashqari, sholizorlarni suv bilan ta‘minlaydigan bir necha nasos stansiyasini davlat-xususiy sheriklik asosida ishlatish uchun investitsiya kiritish va ularni ta‘mirlash jarayoni ham davom etayotir.

— Bilasizmi, sholining asosiy kushandalaridan biri — begona o‘t. Ayniqsa, qamish va g‘umay sholini siqib qo‘yadi, ozuqasiga sherik bo‘ladi, — deydi MCHJ ijrochi direktori Abdulla Tursunov. — Shuning uchun sholisi o‘rib olingan dalalarga boshhoqi don ekinlari ekyapmiz. Maqsad — begona o‘tlarni kamaytirish. May oyi oxiriga borib bug‘doy yig‘ib olingach, izaiga bu yilgidek kechroq bo‘lsa ham sholi o‘stiriladi.

Klaster mutaxassislari fikricha, ayrim dalalardan o‘rtacha 45 sentner, unumdor yerlardan 70 sentnerdan “qirmizi don” olinaypti. Sholizorlardagi hosilni chamalab ko‘rgan tadbirkorlar jami 18 ming tonna hosil olishni mo‘ljallamoqda. Qayta ishlash natijasida 9 ming tonna guruch ishlab chiqariladi. Dastlabki yil uchun bu katta yutuq.

MCHJ ishblarmonlari sholini qayta ishlash niyatida tumandagi sholi oqlash korxonasini bu yil ijaraga olib foydalanishni rejalashtirdi. Kelgusida sholizorlar kengaytirilishini inobatga olib, bo‘sh turgan “Muzrabot don” korxonasini jihozlari bilan sotib olmoqchi. Bu joy rekonstruksiya qilinib, Turkiyadan 50 ming tonna sholi oqlaydigan texnologiya keltirib o‘rnatiladi.

— Muzrabot tumanidagi klasterimizga ajratilgan va foydalanishdan chiqib ketgan 201,1 ming gektar yerni 2025-yilgacha o‘zlashtirib, to‘liq sholizorga aylantiramiz, — deydi Abdulla Tursunov. — Natijada yiliga 70 ming tonnagacha sholi yetishtirishga erishiladi. Sholi yetishtirish va uni qayta ishlash jarayonida 2 ming kishi doimiy ishli bo‘ladi. Muhimi, guruch narxini keskin pasaytirish choralari ko‘riladi.

Usmonali NORMATOV,
jurnalist



BIR MAHALLA — BIR MAHSULOT

SHIRIN QOVUNLAR QISHLOG‘I

Beshariq tumanidagi “Andarxon” mahalla fuqarolar yig‘inida kuzgi qovun sayli boshlandi. Bu yerdagi qay bir xonadonga kirsangiz, dasturxoniga tilimi tilni yorar sarxil qovunlar bilan siylaydi. Bu bejiz emas.

Mahalladagi 900 dan ortiq xonadon sohiblari qovun yetishtirish, saqlash amallari bilan andamon. Andarxon qovunlari dovruq‘ini eshitib, nafaqat vodiy va vohalardan, balki yaqin qo‘shni mamlakatlardan ham xaridorlar kelyapti. Endilikda mazasi, sarxil ko‘rinishi bilan mijozlar, sayyohlar e‘tiborini tortgan qovunlarni xorijga eksport qilish imkoniyati yaratildi. Holbuki, bu ishlar shu kunga qadar tarqaqiy etmagan edi. Joriy mavsumda dastlabki qovunlar qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistonga eksport qilindi.

Bobomning rivoyati

Aytishlaricha, qovun ilohiy ne‘mat hisoblangan. Uni yetishtirgan, yegan kishi gunohlardan forig‘ bo‘lgan. Bozordan sarxil qovunlar olib kelgan bobom bir rivoyatni ko‘p takrorladi.

— Yerga ekilgan qovun urug‘iga vahiydan ovoiz kelib, “unib chiq” debdi.

— Unmayman, — e‘tiroz bildiribdi urug‘.

— Nega?

— Ekkannning gunohidan o‘t.

— O‘tdim, unib chiq, deya takrorlabdi qat‘iy ohangda.

— Yo‘q, yeganning gunohidan o‘t, — debdi. Shundan so‘ng qovun urug‘i yer betini yorib, palak yozgan ekan...

Bu bir rivoyat. Ammo uning zamirida qovun yetishtirish mashqaqatli va sharaflil bo‘lib, uni isrof qilmaslik, mehnatini qadrlash bilan bog‘liq muhim ta‘lim-tarbiya, yaxshilik, farovonlik fazilatlarlari mujassam ekani-ni ilg‘ash qiyin emas.

Qovun nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki shifobaxsh ne‘mat hamdir. Undan qo‘qi, shinni, murabbo ham tayyorlanadi. Tarkibida 18 foizgacha qand, kaliy, natriy,

kalsiy, magniy, temir, fosfor, oltingugurt va boshqa bir qancha foydali elementlar mavjud. Uning po‘sti va urug‘i qon tomirlarini kengaytiradi, terini tozalaydi. Buyrak va jigardagi toshni nuratish xususiyatiga ega.

Sulola davomchilari

Andarxonlik Anvarjon Bozorov qovunchilar sulolasining to‘rtinchi avlodi. Xonadondagi bugungi manzarani qovunlar saltanatiga qiyoslash mumkin. Hovlida oyoq qo‘ygani joy topilmaydi hozir. Xonadon sohiblari, qo‘ni-qo‘shnilar sarxil qovun navlarini saralash, maxsus bog‘lamalar bilan bog‘lash, mo‘tadil ob-havo sharoitida saqlashga qo‘yish kabi yumushlar bilan band. Ular mahsulot turi, vazniga qarab, tabiiy giyoh-qamish — qovg‘alar yordamida qovunlarni “jilovlab” beradi. Shundan so‘ng tabiiy yog‘och jihozlarga osiladi.

— Bu yil yozgi qovundan tashqari 3 gektar yerda kechki qovun yetishtirdik, — deydi sohibkor Anvarjon aka hovli sathidagi

qovunlarni qo‘lga olib. — Yozgi hosildan 150-200 million so‘mdan ortiq daromad qildik. Ayni kunda kechki hosilimizni saqlashga qo‘yish uchun hozirlayapmiz. Mavsum davomida 10 ming donadan ortiq sara qovunni erta ko‘klamga qadar saqlash imkoniyatimiz bor. Barakali soha tufayli turmushimiz farovon, farzandlarimizning kela-jagidan ko‘nglimiz to‘q.

Hamma joyda ham qovun yetishtiriladi. Ammo uning mazasi, saqlanish usulbi Andarxon qovunlariga o‘xshamaydi. Aytishlaricha, bu hududning yer va iqlim sharoiti qovun yetishtirish va saqlash uchun qulay. Mahalladagi deyarli har bir xonadonda mahsulot saqlash uchun joy hozirlangan. Tabiiy jihozlar, oddiy devorlar bilan o‘ralgan xonalar maxsus ustunlar yordamida yo‘laklarga bo‘lingan. Xona haroratini mo‘tadilab turish uchun havo yo‘laklari — tuynuklar ochilgan. Havo sovib ketsa,

tuynuklar berkitiladi. Bu usul mahsulotni ortiqcha namgarchilikdan saqlaydi. Qolaversa, qovunlarni maxsus ustunlarga bir-biriga munosib tarzda joylash dehqondan alohida e‘tibor va sinchkovlik talab qiladi.

— Uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ortib, qovun bog‘lashga ko‘maklashgani chiqamiz, — deydi qo‘shnilaridan biri Karimaxon Karimova. — Bir kunda 500-600 dona qovun bog‘lay olamiz. Bu 200-250 ming so‘m daromad, degan gap. Buning ham o‘ziga yarasha sir-sinoati bor, albatta.

Har bir qovunning katta-kichikligi, vazniga qarab qovg‘a bilan bog‘lanadi. Chunki katta hajmdagi qovun kichik qovg‘a bilan bog‘lansa, ko‘tar-ganda uzilib ketish xavfi oshadi.

Bu yerda qamish qovg‘a tayyorlashga alohida e‘tibor beriladi. Xomashyo quritilib, saralangach, suvga solib yumshatiladi. Keyingi jarayonda namini qochirish uchun matolarga o‘ralgan holda qisman quritiladi. Bu jarayon qamish iplarga yanada mustahkamlik, quruq va uzoq vaqt saqlash xususiyatini beradi.

— Andarxon qovunlari Beshariqning o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylangan bejiz emas, — deydi tuman hokimi Rasuljon Jo‘rayev. — Azal-azaldan polizchilik tumanimizning “Andarxon” va “Sobirtepa” mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisining daromad manbai bo‘lib kelgan. Bu yerdagilarning asosiy qismi qovunchilik bilan shug‘ullanadi. Ular serhosil ekin maydonlarini tanlashdan tortib, yetishtirilgan hosilni



uzoq muddat, hatto erta ko‘klamga qadar saqlashgacha bo‘lgan jarayonning hadisini olgan. Shu bois, yurtimizning barcha hududlaridagi bozorlar, savdo rastalarida Andarxon qovunlarini yilning istalgan faslida topish mumkin. Keyingi yillarda bu boradagi ish tajribasini ommalashtirishga e‘tibor oshdi. Turli ma‘naviy-daniy tadbirlarda qovun sayillari o‘tkazilib, har bir qovun navi tarixi, tarkibi, ta‘mi va parvarishi haqida batafsil ma‘lumotlar taqdim qilinib, yangi tajriba va tashabbuslar qo‘llab-quvvatlaynapti.

Kuzning iliq kunlarida tashkil etilgan qovun sayli esda qolarli voqea va hodisalarga bo‘l‘di. Tuman hokimligi, viloyatda turizm boshqarmasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan qovun saylida Marg‘ilon turizm texnikumi o‘qituvchi va talabalari, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan qirg‘iz, tojik, tatar, turk, rus, nemis milliy madaniy markaz vakillari ishtirok etdi. Ular xonadonlarda bo‘lib, qovun yetishtirish agrotexnikasi, saralash, saqlash va daromad topish amallari bilan yaqindan tanishdi.

— Andarxon qovunlari haqida ko‘p eshitganman, — deydi sayil ishtirokchisi, Qirg‘iz milliy madaniy markazi faoli Metinboy Karimov. — Lekin halol mehnat ortidan ko‘pining koriga yarayotgan mirishkorlar yumushlari, ish amallari haqida yetarli ma‘lumotga ega emasdim. Qovun sayli bu qiziqarli jarayonni o‘zida mujassam etgani bilan e‘tiborimizni tortdi.

Dunyodagi eng mazali va foydali meva-sabzavot, poliz mahsulotlari serquyosh yurtimizda yetishtirilishi har birimizda g‘urur-iftixor uyg‘otishi tabiiy, albatta.

— Mahallamizning o‘shish nuqtasi polizchilik, tomorqachilik, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Avazbek Abdurrahmonov. — Bu yili mavsumda 700 gektardan ortiq maydonda qovun yetishtirildi. Bir gektar poliz maydonidan o‘rtacha 5000 donagacha sara qovun olinadi. Bu bir yilda 3 500 000 dona qovun yetishtirish imkonini beradi. Ayni kunlarda bir dona qovun donabay narxda 20-25 ming so‘m ekanini inobatga olinasa, daromad salmoqini chamalab olish qiyin emas. Bu yo‘nalishda tadbirkorlik qilmoqchi bo‘lgan tashabbuskorlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida ish qurollari, sarxil urug‘lar sotib olish, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun 17 fuqaroga 410 million so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratildi. Bu jarayon davom etmoqda.

Ko‘hna Andarxon qishlog‘i qovunchi dehqonlari haqida ko‘p gapirish mumkin. Ular halol mehnati ortidan farovonlik va elda qadr-qimmat topmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

INSON QADRI UCHUN



Xalq qabulxonalari faoliyati, tizim bilan bog‘liq qaror va farmonlar ijrosini o‘rganish uchun dastlab Chilonzor tumanida bo‘ldik. Tuman Xalq qabulxonasi rahbari Shavkat Mirzajonov bilan uchrashgach, 3-sektor shtabiga qarab yo‘l oldik. Bu sektorga bevosita tuman Ichki ishlar bo‘limi mas‘ul. Bizni 3-4 yosh yigit kutib oldi. Har bir fuqaroni iliq qarshilashga o‘rganib qolgan bu yosh xodimlardan o‘ta sabrlilik, bosiqlik talab qilinishini anglash qiyin bo‘lmadi. Zero, bugun odamlarni rozi qilish oson emas.

Odamlarning murojaatlari bilan ishlash masalasi chinakamiga davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi-da Xalq qabulxonalari tashkil etilishi muhim qadam bo‘ldi. Ammo murojaatlar bilan ishlash, aholi uchun dolzarb muammolar-ni aniqlash va hal etish bo‘yicha “mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla” hamkorlik tizimi bo‘yicha talaygina ishlar qilingan bo‘lsa-da, aksar yurtdoshlarimizning bir tomonlama qarashlarini o‘zgartirish oson kechmayotgani ham bor gap.

Chilonzor aholisidan O‘zbekiston Prezidenti Virtual va Xalq qabulxonalari-ga joriy yilning 7 oyi davomida 10 895 ta murojaat kelib tushgan.

Ma‘lumotlar murojaatlarning 4677 tasi, qariyb 49 foizga yaqini ijobiy hal qilingan. Huquqiy tushuncha berilgan, uzoq muddat-li nazoratga olingan, rad etilgan, tugatilgan, ma‘lumot uchun qabul qilingan murojaatlardan tashqari 973 ta murojaat ko‘rib chiqish jarayonida bo‘lib, ularni ham ijobiy hal etish borasida zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

O‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, joriy yilning 7 oyida 1-sektorda murojaatlar soni kamaygan bo‘lsa, 2-3-4-sektor-larda aksincha, ko‘paygan. Ayniqsa, kommunal sohaga oid murojaatlar soni ortib, bunda elektr energiyasi ta‘minotidagi uzilishlar yetakchilik qilyapti. Keyingi o‘rinlarda issiqlik ta‘minoti, ititish tizimlari nosozligi, tabiiy gaz ta‘minotidagi muammolar ko‘rinadi. Shuningdek, mol-mulk va qarzni qaytarmaslik, jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ko‘rilayotgan ishlar yuzasidan ham murojaatlar yetarlicha.

“MUROJAATLARNING 4677 TASI, QARIYB 49 FOIZGA YAQINI IJOBIY HAL QILINGAN. HUQUQIY TUSHUNCHA BERILGAN, UZOQ MUDDATLI NAZORATGA OLINGAN, RAD ETILGAN, TUGATILGAN, MA‘LUMOT UCHUN QABUL QILINGAN MUROJAATLARDAN TASHQARI 973 TA MUROJAAT KO‘RIB CHIQISH JARAYONIDA BO‘LIB, ULARNI HAM IJOBIY HAL ETISH BORASIDA ZARUR CHORA-TADBIRLAR KO‘RILMOQDA.

Tabiiyki, bularning yechimi “Toshkent shahar elektr tarmog‘lari korxonasi” AJ, tuman hokimligi, tuman kommunal bo‘limi, tuman gaz filiali, Ichki ishlar bo‘limi, prokuratura, fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sud-i, tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi, tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limlari zimmasiga tushadi.

Shu o‘rinda aytilish joizki, kommunal xizmat-lar bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha murojaat-lar, asosan, joriy yilning yanvar-fevral oylarida kuzatilgan anomal sovuq sababli yo‘llangan bo‘lib, qahraton sovuqda xonadonlarda issiqlik, tabiiy gaz ta‘minoti va elektr energiyasi uzatilib qolishi hamda muammo qisqa muddatda bartaraf etilmasligi natijasidir.

Biroq shu yilning 7 oyi davomida kelib tushgan takroriy murojaatlar bu kabi muammolar mavsumdagina bo‘lmisligini ko‘rsatadi.



HAR KO‘NGILGA HAR YO‘L BILAN

Bugun odamlarni rozi qilish shunday ishlashni taqozo qilyapti

To‘g‘ri, takroriy murojaatlar fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga, Pen-siya jamg‘armasi boshqarmasiga, Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasiga, Chilonzor tuman ichki ishlar organlari faoliyatiga ham daxldor. Ammo kommunal soha bilan bog‘liqlari talaygina.

Ushbu holatlar murojaatlar bilan to‘laqon-li ishlamaslik, masalaga yuzaki baho berish, muammolarni to‘liq bartaraf etmay va murojaatchilar bilan joyida mulotot o‘tkazmay, rozligini olmay turib nazoratdan chiqarish, bartaraf etish muddatlarini cho‘zish hamda fuqarolarga murojaatlari bo‘yicha tashkilot-larning javob xatlari yetib bormasligi sababli yuzaga kelgani aniq. Bu yog‘iga mutasaddi-lar mana shu jihatlarni e‘tiborga olgan holda ishlashsa bo‘lgani.

Qo‘yliq bozoridan o‘tib, Bektemir tu-mani markaziga kirib borar ekanmiz, yo‘l bo‘yidagi hovillaru binolar butunlay yangi qiyofaga kirib, ko‘chaga ko‘rk berib tur-ganidan ko‘zimiz quvnadi. Bunda Xalq qabulxonalari tomonidan astoydil nazorat-ga olingan sektorlar faoliyati ham katta o‘rin tutishini mas‘ullar bilan suhbat chog‘i eshitdik.

Birgina misol. Tumandagi lyk ota ma-hallasi Hurriyat ko‘chasida yashovchi fuqar-o Hilola Ortiqova shu hududda joylashgan va bir necha yillardan buyon qarovsiz ho-latda yotgan yer maydoniga fuqarolar turli chiqindilar tashlab ketayotgani, mazkur hududni obodonlashtirish borasida murojaat qiladi.

Murojaat sektor rahbari va tegishli tash-kilotlar ishtirokida o‘rganilib, 2,5 gektar bo‘sh yer maydoni to‘liq obodonlashtirilib, aholi dam olishi uchun kichik boqqa aylantirildi.



ishlari olib borilayotganidan xonadon egasi minnatdor.

Chashma mahallasi Chashma ko‘chasi-da yashovchi Ixtiyor Zoirov esa bir necha yillardan buyon xonadonidagi hammomdan foydalana olmayotgani, to‘g‘rirog‘i, foydala-nishga yaroqsizligini aytadi. Qurilish qilishga sharoiti bo‘lmagan bu fuqaroning murojaati tegishli tashkilot mas‘ullari tomonidan o‘r-ganildi. Homyilar tomonidan 12 million so‘m hisobidan hammomning tom qismiga yangi profnastil yopilib, santexnik jihozlar bilan to‘liq ta‘minlandi. Yangi isitish va qo‘l yuvish moslamalari esa 2-sektor mas‘ullari tomoni-dan o‘rnatib berildi.

Hozir uy-joyini ta‘mirlashga muhtoj 20 ta oilaga 180 million so‘m ajratilgani, 7 nafar fuqaroning uyi ta‘mirdan chiqarilgani, qolgan uylar ta‘mirlash jarayonida ekani bu ishlar-niing tizimli davom etayotganini ko‘rsatadi.



“Har bir oila tadbirkor” dasturi doirasidagi ishlar ham e‘tibordan chetda qolayotgani yo‘q. 8 fuqaroga jami 205 million so‘m imti-yozli kredit ajratildi. Bu borada ham o‘rga-nish ishlari davom etyapti.

Aholi uchun noqulaylik tug‘diradigan muammolardan yana biri yo‘llar masalasidir. Tumandagi ichki yo‘llarning jami 15 ming m² dan ziyod qismi asfaltlanib, 8 ming m² dan ko‘prog‘i mukammal, 7 ming m² qismi esa joriy ta‘mirlandi.

Bugunning eng dolzarb masalasi bo‘lib turgan ichimlik suv ta‘minoti borasida ham imkon qadar odamlarni rozi qilishga intil-ish bor. Ichimlik suv tarmog‘i tortilayotgani, quduqlar ta‘mirlanib, qayta o‘rnatilayotgan suv nasoslari shular jumlasidan.

Xonadonlardagi gaz jihozlari texnik ko‘ri-gi tashkil etilib, gaz taqsimlash punktlarida mukammal ta‘mirlash va diagnostika ishlari amalga oshirilgani, gaz quvurlari tartibga keltirilgani gaz ta‘minotidagi muammolar ye-chimiga xizmat qilyapti.

Aholi birlamchi ehtiyoj sezadigan elektr ta‘minotini yaxshilash uchun transformator punktlari mukammal va joriy ta‘mirlanyapti, ayrimlari zamonaviylariga almashtirilyapti. 8,2 kilometr elektr uzatish tarmog‘i joriy, 0,6 kilometri mukammal ta‘mirlandi, 2,5 kilometr yangi elektr uzatish tarmog‘i tortildi, 5,5 kilo-metri daraxt shoxlaridan tozalandi va 36 ta temir-beton ustun o‘rnatildi.

Tuman Xalq qabulxonasi mudiri Hus-niddin Ismoilov bizni kuzatib chiqar ekan, uni kutib turgan murojaatchilar fursatdan foydalanib qolish uchun yo‘limizni to‘shishdi. Biri yo‘ldagi nosozliklar, biri tadbirkorlik fao-liyatidagi muammolarga yechim izlab kelgan fuqarolar ham noumid bo‘lmaydi, albatta. Zero, bugun odamlarni rozi qilish borasi-da mutasaddilar bor imkoniyatlarini ishga solmoqda.

O‘tgan yili 11-noyabr — Kasaba uyush-malari kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbirida Olmazor tuman hokimi, 1-sektor rahbari Azizxon Umarxonov “Eng yaxshi sektor rahbari” g‘olibligini qo‘lga

kiritib, davlatimiz tomonidan qimmatbaho sovg‘a bilan taqdirlandi. Zero, tumanda mavjud 64 ta mahallada Prezidentimizning sektorlar faoliyatini takomillashtirishga doir qarori imkon qadar xalqni rozi qilish yo‘lida dasturlamal bo‘lyapti.

— Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-yan-var kungi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqti-sodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliya-tini yanada takomillashtirishga doir qo‘shim-cha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida poytaxtimizning barcha tumanlarida Prezident Xalq qabulxonalari tomonidan joriy yilning may oyidan boshlab sektorlarda amaliy ishlar tashkil etildi, — deydi Olmazor tuman Xalq qabulxonasi mudiri Farrux Mo‘minov.

Xususan, tuman Xalq qabulxonalari mudirlari tomonidan har seshanba kuni 1-sektorda, chorshanba kuni 2-sektorda, payshanba kuni 3-sektorda va juma kuni 4-sektorda sektorlar shtabi tarkibiga kiritiladigan davlat idora va tashkilotlari vakil-lari to‘liq tarkibda jamlanishi ta‘minlanyapti. Amalga oshiriladigan ishlar rejas-i, hududlar-da aholini qiynab kelayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha aniq va maqsadli ishlar har hafta yakunida o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda muhokama qilinmoqda.

Tan olib aytilish lozim, joylarda mas‘ullar to-monidan yuqoridagi qaror ijrosini ta‘minlash-da qator sustkashliklarga ham yo‘l qo‘yilmoq-da. Bu toifadagi rahbarlarni uyg‘otish, ularni xalqning dardu tashvishi bilan yashashga o‘rgatish bugun har qachongidan-da muhim. Endi aholi o‘z muammosi ortidan mas‘ul tash-kilotlar ostonasida turmasligi, aksincha, o‘sha tashkilotlar mas‘ullarining o‘zi uyma-uy yurib, muammoli xonadonlarni topishi kerakligi bot-bot ta‘kidlanaypti.

Qarorni amaliyotga to‘liq va sifatli tatbiq etish xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishini amalda ko‘rsatib beradi. Hududlarda Xalq qabulxo-nalari va sektorlar shtabi tarkibiga kiritiladi-gan davlat idora va tashkilotlarining to‘liq tarkibida uyma-uy yurishi, aholi muammolari aniqlanib, joyida bartaraf etilishi, umuman olganda, muammo mahalladan tashqa-riga chiqmasligi, eng avvalo, fuqaroning davlatdan roziligi, Prezident Virtual va Xalq qabulxonalari-ga kelib tushayotgan murojaatlarning keskin kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu yilgi qish shu kabi mutasaddilarning ko‘zini ochgani bor gap. Shu ma‘noda, mav-sumga puxta tayyorgarlik barvaqt boshlanishi talab etilyapti. Olmazor tumani misolida aytilish mumkinki, bu boradagi muammolar yechimidan ko‘ra, oldini olish afzalligini bugun har bir sektor rahbari chuqur his qilib turibdi. Shu bois, Olmazorda 15 ta bosh-qaruv servis kompaniyasi tomonidan ko‘p qavatli uylarni qish mavsumiga tayyorlash maqsadida tom qismlarni joriy va mukammal ta‘mirlash ishlari bajarilyapti. Shuningdek, kirish yo‘laklariga temir eshiklar, videokuza-tuv moslamalari o‘rnatish, eskirgan liftlarni yangisiga almashtirish kabi masalalarga bi-rinchi navbatda e‘tibor qaratilyapti.

Ish bor joyda kamchilik bo‘ladi, deyishadi. Aslini olganda, bugungi shiddatkor davrda bitta oilani risoladagidek boshqarishning o‘zi oila boshlig‘ini o‘ylantirib qo‘yyapti. Endi bir butun xalq, bitta viloyat, bitta tuman aholisi ko‘ngliga yo‘l topib, to‘g‘ri yo‘lga boshlash-niing qanchalar mushkulligini tasavvur qila-vering.

Qisqacha aytganda, Xalq qabulxonalari va ularning nazorati ostida shu el, shu yurt uchun mehnat qilayotgan sektorlar o‘z zim-malaridagi mushkullikni yengib o‘tishga ba-holi qudrat harakat qilyapti.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



21-OKTABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

“QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM!”

Boshlanishi 1-betda

Tanlov O‘zbekiston Respublika-si Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi-da” hamda 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomil-lashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari ijrosi doirasida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o‘zbek tiliga davlat tili ma-qomi berilganining 34 yilligiga bag‘ish-lab o‘tkazildi.

Tadbirda Davlat tilini rivojlantirish departamenti mas‘ul xodimlari, vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining davlat tili bo‘y-icha maslahatchilari, tilshunos, adabi-yotshunos olimlar, shoir-yozuvchilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Departament rahbari Nodir Xolbo‘ta-yev o‘zbek tilining nufuzini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlar, tizimli ish-larga o‘xtalib, seminar ishtirokchila-rining kelgusi ishlariga muvaffaqiyat tiladi. Mamlakatimizda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — millat,

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlari orqa-li isbotlab bergan. Binobarin, bu tilning “Navoiy tili” deb atalishi ham bejiz emas.

“Hammanizga ayonki, ko‘p millat-li xalqimizni yuksak ma‘rifatli jamiyat barpo etishdek ezgu maqsad yo‘lida jipslashtirish, yurtdoshlarimiz qalbiga yagona Vatan, umumiy farovon kelajak tuyg‘usini singdirishda o‘zbek tili bir-lashtiruvchi ahamiyatga egadir”, degan edi davlatimiz rahbari. Shu ma‘noda, “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” tan-lovi o‘z oldiga qo‘ygan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib qilish, unga nisbatan milliy g‘urur hissini tarbiyalash, eng muhimi, davlat tiliga oid muammolarni hal qilishda ilmiy-amaliy yondashuvni rivojlantirish kabi maqsad-larga erishish yo‘lida muhim qadam bo‘lmoqda, deyish mumkin.

Bu yil tanlov “Davlat tili ustuvorligi ta‘minlangan eng namunali hudud” va “Davlat tilida ish yuritish yo‘lga qo‘yilgan eng yaxshi tizim” yo‘nalishlarida tash-kil etildi. Birinchi yo‘nalishda Buxoro viloyatining Shofirkon tumani, ikkinchi nominatsiya bo‘yicha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan hokimliklar hamda respublika idoralari vakillari Vazirlar Mahkamasi



MAZKUR QR-KODNI SKANER QILISH ORQALI VIDEO LAVHAGA O‘TING.

ma‘naviyat va ma‘rifat bayrami sifatida keng nishonlanayotgani, keyingi yillarda ona tilimiz mavqei va maqomini yuksal-tirish borasidagi ishlar mutlaqo yangi-cha bosqichga ko‘tarilgani haqida alohida to‘xtalib o‘tdi.

— Ma‘naviyatning muhim asos-laridan biri bu til va ma‘naviy merosga munosabatdir. Yurtimizda sohaga ko‘r-satilayotgan uzluksiz va qat‘iy e‘tibor, til va adabiyot, ma‘naviyat va ma‘rifatga millat ko‘zgusi va xalq ruhi sifatidagi qa-rashlar hamda yondashuv hamma joy-da ham bir xil emas, — dedi madaniyat vazirining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar sa-maradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risi-dagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha masla-hatchisi Shavkat Ortiqov. — So‘nggi yil-larda mamlakatimizda o‘zbek tilini rivoj-lantirish, uning hayotimizdagi o‘rni va ta‘sirini oshirish borasida yangi bosqich boshlanganiga bugun barchamiz gu-vohmiz.

Ma‘lumki, har bir xalqning tili shu davlatning timsoli, mulki, ruhi, madaniy va ma‘naviy boyligi, qolaversa, shu mil-latning madaniyati, urf-odati, turmush tarzini ifodalovchi eng muhim vositadir. Shukrki, mustaqillik sharofati bilan ona tilimiz, bebaho boyligimiz o‘zimizga qaytdi. Bu yo‘lda ne-ne ajdodlarimiz zahmat chekib, mehnat qilgan, umrfarini bag‘ishlagan.

Ulug‘ mutafakkir bobomiz Hazrat Alisher Navoiy o‘zbek tilining o‘z davri-da taomilda bo‘lgan boshqa tillardan aslo qolishmasligini, aksincha, eng boy va qadimiy til ekanini asarlari, xu-susan, besh dostonidan iborat “Xamsa”,

huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasining maxsus sovg‘alari bi-lan rag‘batlantirildi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilining qudrati va go‘zalligini tarannum etgan hamda joy nomlari haqida ma‘lumot be-ruvchi “Ona tilim — mangu makonim”, “O‘zbekiston joy nomlari” kitoblarini tayyorlash va nashr etishda faol qat-nashgan ijodkorlar, Davlat tilini rivojlan-tirish departamentining telegram ijtimoiy tarmog‘idagi kanali orqali o‘tkazilgan “Ona tilim — g‘ururim, faxrim” tanlovi-niing g‘oliblari esdalik sovg‘alari va kitob-lar jamlanmasi bilan taqdirlandi.

— Har bir ishda ko‘zlangan maqsad-ga erishish uchun hamjihatlik katta ahamiyat kasb etadi, — deydi ekologi-ya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Matnazar Elmu-rodov. — O‘zbek tili jonajon Vatanimiz-da yashayotgan barcha fuqarolar uchun aziz va qadri tilga aylanishi, uning jozi-badorligini oshirish uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz, islohotlarni o‘zimizdan boshlashimiz, tilimiz uchun jon kuydirishimiz zarur. Bunda daxl-dorlik tuyg‘usi juda muhim o‘rin tutadi. Ya‘ni tilimizga bo‘lgan hurmatimiz uyd, ko‘chada, jamoat joylarida, o‘quv-ta‘lim muassasalarida yaqqol sezilishi, so‘z-lashuv madaniyatimizda o‘z ifodasini topishi shart.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MILLAT FIDOYILARI

VATAN TARIXINING charoq'on yulduzlari

Yaqinda O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori, taniqli tilshunos olim Ra'no SAYFULLAYEVAning "O'zbek jaddilari asarlarida milliy taraqqiyot tamoyillari" risolasi Indoneziyada indonez va ingliz tillarida chop etildi.

Kitobning Gadjah Mada universitetida o'tkazilgan taqdimotida oliygohning madaniy fanlar fakulteti dekani o'rinbosari, doktor Mimi Savitri: "Biz O'zbekiston deganda, asosan, Imom Buxoriyni, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburni bilardik. Jadidlar adabiyoti bizni juda hayratga soldi. O'zbekistonga bo'lgan muhabbatimiz va qiziqishimiz yanada kuchaydi", dedi hayajon bilan.

Olimaning quyidagi mulohazalari ma'rifatparvar ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ilmiiy estetik merosining xotin-qizlar va oilaga daxldor qirralari haqida.

Ra'no SAYFULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy
universiteti professori

Onalar bashariyatning tarbiyachilaridir

Istiqlol o'zbek xalqiga qalb ozodligi, so'z erkinligi, adolatli jamiyat barpo etish orzusi bilan birga, jaddidlar merosiga milliy uyg'unlash o'mili sifatida qarashni ham o'rgatdi. Zero, jamiyatning har bir yangilanish davri tarixga qiziqish beqiyos darajada o'sishi, ertangi kunga ishonch mustahkamlanishi bilan boshlanadi. O'zbekistonda barcha sohalaridagi keng ko'lami islohotlar samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyati yuksalishi, boy tarixiy merosimiz chuqur o'rganilishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, o'sib kelayotgan yosh avlod tafakkur tarzi yangilanishi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanayotganida ko'rinadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qadim Turkistonda shakllangan jaddidchilik harakati millatni uyg'otish, mustamlaka ostida ezilib yashayotgan xalqqa o'zligini tanitish uchun astoydil maydonga chiqqan edi.



Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalari dadi ko'tarib chiqqan jaddid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur".

MENDA TAKLIF BOR

Surxondaryoning shimoli-sharqiy hududi... Bu joylar Denov. Qadimda Chog'aniyon bekligi bo'lgan maskan XVII asrdan boshlab "Dehi nav", ya'ni yangi qishloq nomi bilan hozirga qadar saqlanib qolgan. O'tmish va bugun uyg'unlashgan Denov tumanida Sina qishlog'i bor. To'rt mahalladan iborat qishloqqa kelganlar milliy hunarmandlik, ajdodlardan avlodga o'tib kelayotgan an'analar, o'ziga xos taomlar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi.

Qishloqqa borgan inson borki, Nozim akka somsaxonasida mehmon bo'lmay o'tib keta olmaydi. 1996-yildan buyon shu ish bilan shug'ullanib kelayotgan Nozimjon Muhabatov pishiradigan samsaning talabgorlari bisyor. Ikkinchi guruh nogironi bo'lsa-da, shu



Jadidlar nazdida, millatning tarixdan uzilib qolishi, yoshlar o'z yurti o'tmishini, an'analarni, urf-odatlarini bilmasligi kechirib bilmas fojia edi. Zero, tarix tafakkur va zakavat mahsulidir. Tarix qa'rida qolgan ajdodlar o'z beshigida daholarni ulg'aytirgan. Xalqning tarixini ham, istiqbolini ham barcha davrlarda yuksak salohiyat egalari belgilaydi. Vatanimiz o'z o'tmishini yoritib turgan charoq'on yulduzlari — jaddid ma'rifatparvarlari bilan faxrlanadi. Xalq tafakkuri tarixi qanchalik boy bo'lsa, uning bugungi intellektual imkoniyatlari ham shunchalik keng bo'ladi.

Tarix — ulkan, zalvorli kitob. Uning tosh bostirilgan sahifalarini o'qigan sayin insoniyat bugunning qadriga yetadi, ertangi istiqboli haqida orzu qiladi. Tarix kitobi yozuvlari ham har xil — biri chapdan o'ngga, ikkinchisi o'ngdan chapga o'qiladi. Harflari sarg'ayib ketgan, past-baland, toshli-qoyali, o'tmish qumlar bosgan sahifalarni o'qib, millatning ulkan shaxslari bebaho merosidan xabardor bo'lamiz.

Mahmudxo'ja Behbudiy rahnamolik qilgan jaddidlar maktabni millat istiqbolining asosiy quvvatini shakllantiruvchi ma'rifat o'chog'i deb bildilar. Maktablar yangilanishi bilan millat o'zligiga qaytishiga, uning qonida, ongu shuurida Abu Rayhon Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Hazrat Navoiy, Mirzo Bobur kabilardan meros aql-zakavat uyg'unishiga ishonilardi.

Bugun ham bunday salohiyatga ega bo'lish har bir millatning istiqboli uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Mustaqillik tufayli biz butunlay yangi hayotga, butunlay yangi jamiyatga qadam qo'ydik. Zero, jamiyatni yangilash inson tafakkurini yangilashdan boshlanadi.

Jadidlar — buyuk ma'rifatparvar olimlardan bebaho ma'naviy-ilmiiy-estetik xazina meros bo'lib qoldi. Ularning yuksak iqtidori, tafakkuri va zakovati nafaqat qadim Turkistonga, balki Sharq mamlakatlariga ham ziyo sochgan. Jadidlar erk va ozodlik, millat va vatanparvarlik, ma'naviy jasorat va matonat, xotin-qizlarni ilmiy qilish kabi buyuk g'oyalarni targ'ib etdi.

Oila va ayol qadriyatlarining buyuk tarbiyaviy ahamiyati ularning jamiyatdagi o'rini belgilash, mohiyatiga chuqur kirib borish, masalaning tub negizidagi ertangi kun uchun eng qimmatli, eng ilg'or jihatlarga jamoatchilik e'tiborini qaratish bilan belgilanadi.

Jadidlarning qator asarlari va davriy matbuotdagi maqolalarida, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy tashkil etgan "Oyina" jurnalida oila masalasiga jiddiy e'tibor berilgan.

Milliy ongni uyg'otish ham, milliy o'zlik tuyg'usini singdirish ham oiladan boshlanadi. Oila milliy qadriyatlarini asrab, avlod-dan-avlodga olib o'tuvchi manba sifatida ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Sharqda oila hamisha muqaddas qo'rg'on sanalgan. Oila sha'ni Vatana sha'ni kabi ulug'langan. Ona maqomi esa Vatanga tenglashtirilgan. Sharq oilasida ayolning, onaning e'zolanishi birinchi o'rinda turadi. Donishmand pedagog va ulug' ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy o'z asarlarida ma'rifatning ahamiyati millat, jamiyat istiqbolida bemisli ekanini ta'kidlab, ayollarni o'kinchi havasu boyliklardan voz kechib, ilm olishga chaqiradi. "Ko'bdan unutmog kerak edi" she'rida u bunday deydi:

*Ilm-u san'at-la jahon ayvonidur
oyinaband,
San yotar beg'am qaro uyda,
bu zindonni unut.
Ma'rifat bozorida moling
sotolmaysan, g'arib,
Eski chig'riq, eski charx-u
eski do'konni unut.
Ilm-u donish yaxshi zinyatdur
xotin-qiz ahliga,
Qo'y qadam ilm uyina,
tumor-u marjonni unut.*

Sharqda azal-azaldan oilaviy ta'lim-tarbiyaga jiddiy e'tibor berilgan. Har bir oilada, avvalo, ota-ona farzand uchun ibrat namunasi hisoblangan. Farzandlarga quruq pand-nasihatlar berish, ertaklar aytish bilangina emas, balki shaxsiy namuna, axloq-odob, o'zini tutish va amaliy ishlar bilan namuna bo'lingan. Zero, bola uchun eng birinchi ustoz ota-ona-dir. Xalqning "Qush uyasida ko'rganini qiladi" maqoli bejiz aytilmagan. Xonadon boshliqlari

ta'lim-tarbiyaga mas'uliyatli bo'lsa, farzandlar ilm-sevar, kitobsevar, ma'rifati bo'lib o'sadi.

Abdulla Avloniy har bir oilaning baxtli bo'lishi, farovon yashashi aynan uning ilm egallashi bilan bog'liq, deb biladi. Allo-ma asarlarida millat yoshlarini ilm olishga da'vat etadi, o'qish-o'rganishdan mahrum bo'lish — kelajakdan mahrum bo'lish, deb uqtiradi. Qizlarning ilm olmasligi jaholat, barcha yangiliklar, maktab va ma'rifat dushmani ekanini dadi ayta oldi.

*O'g'il-qiz o'qusa bo'lur olim,
Johil odamlar bo'ladur zolim.
Baxt-u iqbol ilma bog'liqdur,
Ilm o'qutmoq ahsan a'molim.*

Jamiyatdagi o'zgarishlar davrining o'ta qaltis, ziddiyatli bosqichlarida Abdulla Avloniy "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishi lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydi", degan



o'ta muhim, o'sha davr uchun o'ta qaltis masalani dadillik bilan o'rtaga tashlaydi. Bu purma'no so'zlar hamma zamonlarda ham dolzarbligicha qolaveradi.

Yagona najot ilmda, oila ma'naviyatida

Muborak hadislarida yozilishicha, beshikdan qabrga qadar ilm izlamoq farzdir. Sharqda oila o'z qonunlari, qoidalari va betakror milliy qadriyatlariga ega qo'rg'on hisoblangan. Ilm-fan, taraqqiyot va, umuman, farovonlikning barcha jabhalariga munosib shaxslar oilada tarbiyalanadi. Vatana va millat taqdirida ham shaxslar va ziyolilar muhim hodisa sifatida e'tirof etiladi. Ular uchun oila — tarbiya o'chog'i, ota-onaning ma'rifati bo'lishi ibrat maktabi vazifasini o'tagan.

Abdulla Avloniy ilmiy-pedagogik, badiiy ijodining bosh mavzusi vatanga muhabbat, xalqning ma'rifati bo'lishiga da'vat edi. Uning nazdida, millat onalarining ma'naviyati, ilmga intilishi, qizlarning maktablarda

tahsil olishi, oiladagi sog'lom ma'naviy muhit mamlakat istiqboli uchun eng asosiy omil hisoblangan.

Turkiston jaddidchilik harakati rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy har tomonlama barkamol shaxslardan biri edi. U milliy jurnalistika, milliy adabiyot, milliy ta'lim bilan bir qatorda millat onalarining ma'rifati bo'lishiga ham jiddiy e'tibor berdi. Uning rahbarligida jaddidlar tomonidan ayollarga kelajak avlod tarbiyachisi sifatida qarash g'oyasiga asos solindi.

Millat istiqboli qayg'usida bo'lgan Behbudiy ma'naviyat fidoyisi sifatida yoshlarni ilm olishga da'vat qilargan ekan, bu maqsadlar amalga oshishi uchun onalar hissa qo'shishi kerakligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Olim "Bizni kemiruvchi illatlar", "A'molimiz yoinki murosdimiz" maqolalarida to'y va ta'ziya ma'rakalari haqida fikr yuritib, isrofgarchilikni qoralaydi. Albatta, ayollar ishtirokisiz bu isrofgarchiliklarning oldi-

Bolaga mustaqil fikrni, ijodiy erkinlikni, iste'dodni ma'rifati oila beradi. Uning mashhur "Padarkush" asari faqat o'zbek dramaturgiyasining ilk qaldirg'ochi sifatida-gina emas, balki bir oilaning fojiasi qalamiga olingani bilan ham jamoatchilik e'tiborini tortadi. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi g'oyat jiddiy, nozik, qaltis munosabatlar, ziddiyatlar, turlicha yondashuvlar ta'lim-tarbiyaning dolzarb masalasi tarzida talqin etiladi. Drama mavzusi millatning qalbiga chuqur iztirob soladi. Tarbiyasiz bola nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham og'ir muammodir. Adib tarbiyasizlikning oxiri halokatga olib borishini ishonchli lavhalarda tasvirlaydi. U dramadagi Domulla obrazi-da o'zining pedagogik-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini ifodalaydi. Uning nazarida, millat boylari, avvalo, o'zlari ilm-u ma'rifati bo'lishlari, yurt tarixi va madaniy an'analariga hurmat bilan qarashlari, farzandlari uchun oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratishlari zarur.

Muallif jaholat to'riga o'ralgan millat yoshlari uchun yagona najot ilmda, oila ma'naviyatida, deb biladi. Behbudiy ayollar ma'rifati bo'lishi, qizlar maktabda tahsil olishi, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birlikda olib borilishi lozimligini, aks holda, katta fojialarga sabab bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Buyuk alloma, professor Abdurauf Fitrat aytganidek, "Har bir bola go'dakligidan onasining tarbiyasiga mahkum, binobarin, biz dastlabki tarbiyani o'z onamizdan olamiz. Bu onalar bashariyatning tarbiyachilardir".

Ma'rifatparvar olim oilani ilk tarbiyaning o'chog'i, ayolni oilani asrovchi asosiy shaxs deb biladi. 1915-yilda nashr etilgan "Oila" kitobida uning huquqiy va ma'rifiy qarashlari yanada takomillashadi. "Har bir oilaning saodati va millati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayana-di, qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi", deydi Fitrat. Olimning fikricha, ta'limni oiladan boshlash shart. Buning uchun o'z onamizdan olishi, ota ilmini qadrlashi lozim.

Tiklanayotgan tariximiz, milliy an'analarnimz, milliy o'zligimizni anglash ham oilaning jamiyatdagi nufuzi bilan belgilanadi. Jaddid olimlarining ayollarni ma'rifati qilish, oilaning tub negizini mustahkamlash, shu ezuq maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini yuksak ma'naviyatda tarbiyalashdek buyuk g'oyalari yangi O'zbekistonda yangicha tamoyillar yaratilishiga asos bo'lmoqda. Jaddidlar ijtimoiy tuzumni butunlay o'zgartirish, ma'rifiy-ma'naviy islohotlar orqali jamiyatni tubdan yangilash g'oyalari ilgari surgan edilar. Zero, milliy o'zlik tuyg'usi har bir ijodkor qalamga olgan davrning qiyofasida, xalqning orzu-umidlari va xarakter xususiyatlarida ko'rinadi. Vatana o'tmishi, buguni va kelajagi bilan bog'liq masalalarda jaddid bobolarimizdan meros ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarning ahamiyati yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

3000 yoshli Sunbula

O'TMISH VA BUGUN UYG'UNLASHGAN TOG' BAG'RIDAGI QISHLOQ MO'JIZALARI

kasbi ortidan nafaqat o'zi, balki yana 14 kishini ish bilan ta'minlagan.

Sina qishlog'ining Ushor mahallasi-da necha asrlar oldin tabiiy hosil bo'lgan hovuz bor. Aytishlaricha, baliqqa boy bu joyda suv sira qurimaydi. Mahalliy aholi esa uning baliq'ini yemaydi. Sababi, kimdir bu baliqlarni ovlasa, mavsumiy uchib kelgan o'rdaklarni tutib olsa, kasal bo'lib qolarkan. Aksincha, niyat bilan kelib, baliqlarga non ulashganlar niyatiga yetar, sariq kasalga chalinganlar shifo toparkan. Hovuz ayni pishiqchilik paytida yotqutdek tovlangan qizil olma daraxtlari bilan o'ralgan.



Sina qishlog'ida Sunbula ziyoratgohi bor. Tog' bag'ridan tabiiy tarzda chiqayotgan bulog' suvlari birlashib, tosh oralab jilg'a bo'lib oqadi. Olimlarning aytishicha, bulog' 3 ming yildan buyon mavjud.

Atrofi tog', tepaliklar bilan o'ralgan tarixiy Sina qishlog'i kengliklarini mohir oshpazlar tayyorlagan taomlar ifori tutadi. Yaqinda bu yerda Termiz shahri va tumanlar hududlariga xos tansiqli taomlar ko'rgazmasi bo'ldi. Milliy uslubda bezatilgan pavilyonlarda pazandalarning turli taomlar tayyorlash bilan bog'liq uslub, udum va an'analar ko'rsatildi. Ikki ming turdagi taom joy olgan sayilida Surxonning tandir kabobi, cho'poncha, biqtirma singari o'nlab noyob taomlarni tayyorlash sir-sinoatlari namoyish etildi.

Sinalik qo'ligul oshpazlar avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan nafis hunarlarini, non, somsa, patir va shu hududga xos boshqa taomlarni tayyorlash jarayonini ko'rsatdi. Sayilga kelgan tojikistonlik mehmonlar ham milliy taomlarimiz bilan tanishdi.

Sayil yakunida "Eng yaxshi milliy taom", "Eng yaxshi oshpaz" kabi yo'nalishlar bo'yicha g'oliblar aniqlandi. Sina qishlog'i ahli chindan ham pazandalik bobida tengi yo'q. Kelgusida mazkur qishlog' ahlini ish bilan ta'minlash va yangi loyihalariga dalda berish uchun gastronomik turizm rivojiga katta e'tibor qaratilsa, yaxshi bo'lar edi. Ayniqsa, milliy an'analarnimz asosida bezatilgan uy mehmonxonalar tashkil qilinsa, nur ustiga nur. Mehmonxonalardan Surxondaryo viloyati hunarmandlari to'qigan gilamlar, so'zanalar, kashtali sumkalar va choponlar o'rin olsa, yanada yaxshi...

Xorijdan kelayotgan va mahalliy sayyohlar tog' bag'ridagi 3000 yoshli Sunbula bulog'idan suv ichib, milliy ruhda bezatilgan xonadonlarda qo'lligul oshpazlar taomlaridan bahramand bo'lishsa, deymiz.

Mastura HAMROYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi Surxondaryo
viloyati bo'limi mutaxassisi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.

Hajmi — 3 taqoq. Ofsat usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05